



ALISHER NAVOIY DOSTONLARI VA BOBUR ASARLARIDA JANG TASVIRINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978153>

Primova Ro'zigul Abduqodirovna

Qarshi Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

hamidyaxshiyev4@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy dostonlari va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida jang sahnalarining badiiy va falsafiy talqini o'rganiladi. Tadqiqotda Navoiy ijodida jang motivi timsolli va epik uslubda, Bobur asarlarida esa realistik va hayotiy tasvirlar bilan ifodalanganligi, shuningdek, qahramonlarning ichki ruhiy kurashi va axloqiy tanlovlari orqali jangning mazmuni va estetik jihatlari yoritiladi.*

KALIT SO'ZLAR: *jang motivi, badiiy talqin, falsafiy mazmun, ramziy obraz, epik uslub, axloq, qahramon, mumtoz adabiyot.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье исследуется художественное и философское осмысление сцен сражений в поэмах Алишера Навои и произведениях Захириддина Мухаммада Бабура. В работе подчеркивается, что в произведениях Навои мотив боя изображается символически и эпически, тогда как в текстах Бабура он представлен реалистично и жизненно. Кроме того, анализируется, как внутренние переживания и моральный выбор героев раскрывают эстетические и философские аспекты войны.*

Ключевые слова: *мотив боя, художественное толкование, философский смысл, символический образ, эпический стиль, мораль, герой, классическая литература.*

ABSTRACT: *This article examines the artistic and philosophical interpretation of battle scenes in the epics of Alisher Navoi and the works of Zahiriddin Muhammad Babur. The study highlights that in Navoi's works, the battle motif is depicted in a symbolic and epic manner, while in Babur's writings it is presented realistically and lifelike. Additionally, the article explores how the heroes' inner struggles and moral choices reveal the aesthetic and philosophical dimensions of warfare.*

Keywords: *battle motif, artistic interpretation, philosophical meaning, symbolic image, epic style, morality, hero, classical literature.*



KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi alohida o'rin tutadi. Bu ikki buyuk siymo nafaqat badiiy so'z san'atini yuksak bosqichga olib chiqdi, balki o'z asarlari orqali inson, jamiyat, axloq, ma'naviyat va tarix haqidagi chuqur falsafiy va hayotiy qarashlarni ifodaladi.

Alisher Navoiy asarlari insonni komillikka yetaklash, ma'naviy poklik, ezgulik, adolat va ilm-ma'rifat g'oyalarini targ'ib etishga yo'naltirilgan. Uning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlari, g'azallari, pandnoma va tasavvufiy asarlari Sharq falsafasi va islom axloqi bilan uyg'un holda inson ruhiyati va jamiyat muammolarini yoritadi. Navoiy ijodida badiiy obrazlar orqali insonning ichki olami, nafs bilan kurashi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ziddiyatlar keng talqin etiladi. Shu jihatdan, uning asarlari nafaqat adabiy, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lgan o'zbek klassik adabiyoti yetishtirgan siymolar orasida Alisher Navoiy singari ulug' va mukammal ikkinchi bir shaxsiyatni uchratish qiyin. Uning har taraflama keng, ijtimoiy, siyosiy, adabiy faoliyati va ko'p hirlari yuksak badiiy ijodi o'zbek xalqi tarixida, uning yaratgan madaniyati va adabiyoti sahifasida eng porloq va sharaflari o'ringa ega.

Alisher Navoiy ijodida jang tasvirlari ko'proq epik-ramziy xarakterga ega. Uning "Xamsa" dostonlari, xususan, "Saddi Iskandariy", "Farhod va Shirin",

"Layli va Majnun" asarlarida jang voqealari bevosita tarixiy to'qnashuv sifatida emas, balki axloqiy va falsafiy g'oyani yorituvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Navoiy jangni kuch sinovi emas, balki adolat, aql va ma'naviyat ustuvorligini ko'rsatish sifatida talqin qiladi. Ijodkorning **"Sabbai Sayyor"** asarida Suhayl va Jobirning o'zaro to'qnashuvi shoirona mahorat bilan yoritilgan.

Chun yetib qildi el halokiga mayl

Razmu kin ichra chobuk erdi

Suhayl.

Qila boshlab aning bila parxosh,

Ishlari kema ichra bo'ldi savosh.

Jobir ar zarb urar edi behad,

Barcha zarbin Suhayl etar edi rad.

Qilsa ul do'gi zarb izhori,

Munga ham tushmas erdi ul kori.

Ikkisi chunki erdilar cholok,

Bir-biridin ularga yo'q edi bok¹⁵

Alisher Navoiy qahramonlari jang maydonida faqat tashqi kuch va qurollar bilan emas, balki avvalo o'z nafslari bilan kurashishadi. Ularning har bir harakati, qarori va zarbi ichki dunyodagi iroda, sabr-toqat, g'urur va ruhiy mustahkamlik bilan chambarchas bog'langan. Shu jihatdan, jang sahnalari nafaqat tashqi voqelikni, balki inson ruhining murakkab psixologik jarayonlarini ham aks ettiruvchi badiiy manzara sifatida namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotda jang motivi asrlar davomida muhim o'rin tutgan. Bu motiv qahramonlarning

¹⁵ Alisher Navoiy. Sab'ai Sayyor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 215.



jasorati, mardligi, shijoati va dono qaror qabul qilish qobiliyatini ochib beradi. Jang sahnalari orqali nafaqat voqealar hayotiy va dramatik tarzda tasvirlanadi, balki o'quvchiga qahramonlarning ruhiy holati, ularning qarama-qarshi kuchlar bilan kurashi ham his ettiriladi. Mumtoz adabiyotda jang motivi ko'pincha axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi: yaxshilik va yomonlik, mardlik va qo'rqqoqlik kabi insoniy fazilatlar jang sahnasi orqali ko'rsatiladi. Shu bilan birga, tasviriy leksika, takrorlar va badiiy ifodalar jangning dramatik kuchini oshirib, matnga ritm va jonlilik baxsh etadi.

Navoiy shoirona mahorat bilan qahramonlarning ichki kurashini tashqi jang bilan uyg'unlashtiradi: har bir zarb, har bir qaror faqat jang maydonidagi ustunlik uchun emas, balki ruhiy tafakkur, axloqiy fikr va insoniy fazilatlarining sinovi sifatida yoritiladi.

Uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lgan o'zbek klassik adabiyoti yetishtirgan siymolar orasida Alisher Navoiy singari ulug' va mukammal ikkinchi bir shaxsiyatni uchratish qiyin. Uning har taraflama keng, ijtimoiy, siyosiy, adabiy faoliyati va ko'p hirlari yuksak badiiy ijodi — o'zbek xalqi tarixida, uning yaratgan madaniyati va adabiyoti sahifasida eng porloq va sharaflı o'ringa egadir¹⁶.

Bobur she'riyati o'zbek adabiyotining noyob boyligi bo'lib, unda shoirning ichki dunyosi, hissiyotlari va

hayotiy tajribalari nozik, samimiy ohangda ifodalanadi. Uning g'azallari va ruboiylarida nafaqat sof lirik ohang, balki chuqur falsafiy tafakkur ham mujassam. Bobur tabiat manzaralarini tasvirlashda, insoniy kechinmalarni ifodalashda, yor sevgisini yuksak noziklik bilan bayon etishda ustalik ko'rsatadi.

Shuningdek, uning she'riyati tarixiy va shaxsiy voqealarni uyg'un bir tarzda ifodalash orqali o'quvchiga o'sha davr madaniyati va hayot tarzi haqida ham tasavvur beradi. Bobur she'riyatida ma'naviy iztirob, sevgi va sog'inch, tabiat go'zalligi va inson qalbining nozik tuyg'ulari ustun o'rin tutadi. Shu jihatlari bilan uning ijodi nafaqat tarixiy, balki badiiy ahamiyatga ham boy.

Bobur she'riyati, asosan, g'azal va ruboiy janrlarida namoyon bo'lib, unda ishqiy-lirikaning nozik ohanglari, falsafiy mushohadalar va hayotiy kuzatuvlar mujassamdir. Shoir tilining soddaligi, ifodaning tabiiyligi va samimiyligi uning poetik uslubining muhim belgilaridan sanaladi. Bobur asarlarida mumtoz adabiyot an'analari bilan bir qatorda individual uslub, obrazlilik va hayotiy realizm ham yaqqol seziladi. Nasriy ijodning yuksak namunasi bo'lgan "Boburnoma" asari esa muallifning tarixchi, adib va kuzatuvchi sifatidagi mahoratini namoyon etadi. Asarda tarixiy voqealar, harbiy yurishlar, siyosiy jarayonlar bilan birga, muallifning shaxsiy hayoti, ruhiy holati, tabiat va madaniyatga oid qarashlari jonli va obrazli til orqali ifodalanadi. Shu jihatdan "Boburnoma" o'zbek adabiy tilining

¹⁶ Sharafiddinov O. Alisher Navoiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1971. – B. 23.



rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim filologik manba hisoblanadi.

“Boburnoma” asari filologik jihatdan o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiyot bosqichini yorituvchi noyob manba hisoblanadi. Asarda tarixiy voqealar xolis va aniq bayon qilinishi bilan birga, muallifning shaxsiy kechinmalari, ruhiy holati va hayotiy tajribalari jonli, obrazli til vositalari orqali ifodalanadi. Bobur nasri sodda, ravon va tabiiy bo'lib, unda og'zaki nutqqa xos unsurlar bilan adabiy til me'yorlari uyg'unlashgan. Bu holat asarning badiiy-estetik ta'sirini kuchaytiradi hamda uni o'quvchiga yaqinlashtiradi.

Filologik jihatdan “Boburnoma”ning muhim xususiyatlaridan biri — undagi leksik boylikdir. Asarda harbiy terminlar, geografik atamalar, etnografik va madaniy tushunchalar keng qo'llanilib, o'sha davr ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va dunyoqarashi haqida boy ma'lumot beradi. Tabiat tasvirlari esa obrazli iboralar, tashbeh va tasviriy vositalar orqali berilib, Boburning nozik didi va shoirona tafakkurini namoyon etadi.

Shuningdek, “Boburnoma” muallif nutqining subyektivligi bilan ajralib turadi. Bobur voqealarni baholashda o'z munosabatini ochiq bildiradi, muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda mag'lubiyatlarini ham samimiy tarzda tasvirlaydi. Bu holat asarni oddiy tarixiy solnomadan farqlab, uni yuksak badiiy-memuar janriga ko'taradi. Natijada “Boburnoma” nafaqat tarixiy va adabiy,

balki tilshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham bebaho asar sifatida jahon adabiyotida munosib o'rin egallaydi.

Andijon uchun jang borayotgan damlarda Boburning inilari yov qo'lga tushadilar, o'zi ozgina odami bilan urusha-urusha chekinadi. Otlar horigan, sodiq beklar o'zlari himoyada qolib, Boburni xavfsizroq yerga ketishga undaydilar. Avvaliga odamlarini tashlab ketishga ko'nmagan mirzo keyinroq vaziyatning qaltisligini hisobga olib, rozi bo'ladi. Bundan xabar topgan Tanbalning ikki odami hiyla yo'li bilan uni qo'lga tushirishga urinishadi va Boburga sadoqat izhor qilib, bir chorbog'da to'xtashga ko'ndiradilar. Ularning asl niyatini sezgan Bobur bu qaltis vaziyatda ko'nglidan o'tganlarini shunday ifodalaydi:

“...Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yomonroq nima bo'lmas emish... O'zumda betoqatlig'e fahm qildim. Qo'ptum, bog' go'shasig'a bordim. O'zum bila andisha qildim. Dedimkim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o'lmak kerak... O'zumni o'lumga qaror berdim...”¹⁷

O'z qismatini mardona qarshi olishga tayyor turgan mirzoni taqdir qo'llaydi va tarafdorlari yetib keladilar...

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida jang tasviri

¹⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Porso Shamsiyev (tahr.). – Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1989. – B. 79.



muhim badiiy motiv sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur motivning talqini har ikki ijodkorda poetik vazifa, obrazlilik darajasi va estetik yo'nalish jihatidan keskin farqlanadi. Ushbu tafovutlar asarlarning janr tabiatiga, mualliflarning badiiy tafakkuriga hamda ularning ijodiy konsepsiyasiga bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Boburning o'zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Jumladan, 909 (1503–1504)-yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo'ravonlikka o'rgangan edilar. Ular Boburga qo'shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar «birovning bir ko'za yog'ini tortib olg'on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o'q joni chiqdi. El bu siyosatting tamom bosildilar», – deb ta'kidlaydi Boburning o'zi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat qahramon va sarkarda sifatida, balki adolat va axloqiy prinsiplarni qat'iy saqlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Urush va nizolar avj olgan murakkab vaziyatlarda ham u me'yor va qonunlarga rioya qilishni birinchi o'ringa qo'yadi, zulm va adolatsizlikka chek qo'yadi. Xisravshoh askarlari kabi odat va intizomsizlikka moyil bo'lgan qo'shin bo'lsa-da, Bobur ularni tartibga solish va adolatni ta'minlash orqali harbiy yurishning axloqiy-estetik jihatini ham himoya qiladi. Shu bilan, Bobur shaxsiy fazilatlarini bilan nafaqat siyosiy va harbiy

lider sifatida, balki adolat mezonlarini hayotiy tajriba va amaliyotga tatbiq eta olgan shaxs sifatida ham tarixiy namuna bo'ladi.

Alisher Navoiy dostonlarida jang tasviri asosan ramziy-obrazli xarakterga ega. Jang sahnalari epik syujet tarkibida ma'naviy-axloqiy g'oyani ifodalovchi poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Shoir jangni tashqi to'qnashuv emas, balki ichki ziddiyat, ruhiy kurash, komillik sari intilish timsoli sifatida badiiylashtiradi. Natijada jang manzaralari umumlashtirilgan, ideallashtirilgan va timsollar tizimi orqali ifodalanadi¹⁸. Qahramonlarning harakati esa iroda, sabr, axloqiy tanlov kabi tushunchalar bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi.

Bobur asarlarida, xususan, "Boburnoma"da jang tasviri realistik-badiiy yo'sinda namoyon bo'ladi. Bu yerda jang sahnalari tasviriy aniqlik, ketma-ketlik va kuzatuvchanlik asosida quriladi. Muallif jang jarayonini detallashtirgan bayon, psixologik holat tasviri hamda subyektiv nutq orqali ifodalaydi. Bobur jangni ideallashtirmaydi, balki uni kechinmalar, ruhiy taranglik va ichki iztirob bilan boyitilgan badiiy manzara sifatida ko'rsatadi.

Badiiy nuqtayi nazardan muhim farqlardan yana biri muallif pozitsiyasining ifodalanish shaklidir. Navoiy dostonlarida muallif ovozi bilvosita, falsafiy umumlashma va ramziy

¹⁸ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 59.



talqin orqali sezilsa, Bobur asarlarida muallif nutqi bevosita, avtobiografik liriklik va psixologik samimiyat bilan ajralib turadi. Shu sababli Bobur jang tasvirlarida individual ruhiy tajriba yetakchi o‘rin egallaydi.

Til va uslub jihatidan ham sezilarli tafovut kuzatiladi. Navoiy jang sahnalarini yaratishda istiora, tashbeh, mubolag‘a, epik ko‘tarinkilik kabi poetik vositalardan foydalanadi. Bobur esa sodda bayon, tabiiy nutq, badiiy realizm asosida tasvirni amalga oshiradi. Natijada Navoiy jangni estetik-falsafiy obraz,

Bobur esa hayotiy-badiiy manzara sifatida talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodida jang tasviri ramziy-epik badiiyat doirasida shakllangan bo‘lsa, Bobur asarlarida u realistik-badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu farqlar o‘zbek mumtoz adabiyotida jang motivining turli poetik talqinlarini belgilab beradi hamda har ikki ijodkor ijodining estetik qimmatini yanada yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Sab‘ai Sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
2. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011.
3. Qayumov A. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
5. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1971.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Porso Shamsiyev (tahr.). – Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1989.